

2/2024,
mart-
aprel
(№ 00070)



OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI

Xamraev Nodirbek Ravshanovich

Qarshi Davlat universiteti tadqiqotchisi

n.xamrayev84@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss2/a25

Annotatsiya

Maqolada asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biri - investitsiya salohiyati ko'rib chiqilgan. Jumladan, oziq-ovqat sanoati korxonolari tushunchasining mohiyati ochib berilgan hamda investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi oziq-ovqat sanoati korxonolari nuqtai nazaridan har tomonlama ko'rib chiqish zarurligi ko'rsatilgan. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining investitsiya salohiyatiga ta'rif berilgan va uni tashkil etuvchi omillar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, investitsiya salohiyati, investitsiyalar resurslar, moliyaviy salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, mehnat salohiyati, innovatsion salohiyat, marketing salohiyati, ehtimoliy salohiyat, boshqaruv salohiyati.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Хамраев Нодирбек Равшанович

Исследователь Каршинского государственного университета

Аннотация

В статье рассматривается одна из основных экономических категорий - инвестиционный потенциал. В частности, раскрыта сущность понятия предприятий пищевой промышленности и указана необходимость всестороннего рассмотрения с точки зрения предприятий пищевой промышленности, осуществляющих инвестиционную деятельность. Дается определение инвестиционного потенциала предприятий пищевой промышленности и формируются факторы, его составляющие.

Ключевые слова: пищевая промышленность, инвестиционный потенциал, инвестиционные ресурсы, финансовый потенциал, производственный потенциал, трудовой потенциал, инновационный потенциал, маркетинговый потенциал, вероятностный потенциал, управленческий потенциал.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ASSESSING THE INVESTMENT POTENTIAL OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES

Khamraev Nodirbek Ravshanovich

Qarshi State University researcher

Abstract

The article considers one of the main economic categories - investment potential. In particular, the essence of the concept of enterprises of the food industry is revealed and the need for comprehensive consideration from the point of view of enterprises of the food industry carrying out investment activities is indicated. The investment potential of food industry enterprises is described and the factors that make it up are formulated.

Keywords: food industry, investment potential, investment resources, financial potential, production potential, labor potential, innovative potential, marketing potential, probable potential, management potential.

Kirish

Zamonaviy sharoitda oziq-ovqat sanoati aholining birlamchi ehtiyojlarini qondirish va shu bilan birga zarur mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari - tayyor mahsulot va yarim tayyor mahsulotlar, shu jumladan turli ichimliklar va tamaki mahsulotlari ko'rinishidagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalar majmuidir. Oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek ichimliklar va tamaki ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati sifatida tavsiflanadi [1].

Korxonaning investitsion salohiyati tashqi va ichki moliyalashtirish manbalari orqali jalb qilinishi mumkin bo'lgan investitsiyalar hajmi bilan belgilanadi. Bu, shuningdek, korxonaning investitsiya ob'ekti qiymatini oshirish uchun mavjud resurslarni jalb qilish orqali qo'shimcha moliyaviy oqimlarni yaratish bo'yicha investitsiya chora-tadbirlari majmuasini amalga oshirish qobiliyatidir. Ular investitsiya portfellarini yaratish, investitsiya loyihalarini yoki individual investitsiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun ham qo'llaniladi. Investitsion salohiyat korxonada tomonidan bir zumda amalga oshirib bo'lmaydigan investitsiya imkoniyatlarini bosqichma-bosqich to'plash orqali shakllanadi. Investitsion salohiyatni shakllantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omil - bu korxonada amalga oshirishga qodir bo'lgan investitsiyalar rentabelligi. Ya'ni, agar korxonada daromad keltiradigan investitsiya imkoniyatlari mavjud bo'lsa, investorlar o'z pullarini ko'paytirish maqsadida korxonaga sarmoya kiritishdan mamnun bo'lishadi.

Investitsion salohiyatni baholash korxonaning moliyaviy, iqtisodiy va sifat xususiyatlarini o'z ichiga oladi, jumladan:

- iqtisodiy salohiyat, aktivlardan foydalanish samaradorligi va biznesga jalb qilingan moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslari;
- allaqachon jalb qilingan investitsiyalar hajmi va ularning o'sish ko'rinishidagi real daromadi rentabelligi, xodimlar soni, soliq tushumlari;
- korxonaning moliyaviy mustaqilligi va likvidligi darajasi;
- korxonaning raqobatbardoshlik darajasi;
- korxonaning BCG matritsasidagi o'rni;
- korxonaning mulkiy qiymati va bozor ulushi darajasi;

- yer, tabiiy va intellektual renta, korxonaning obro'si, moliyaviy leverage darajasi; - pul oqimi darajasi;
 - bozordagi tadbirkorlik va investitsion faollik ko'rsatkichlari.
- Ikkinchi guruh xususiyatlariga quyidagilar kiradi:
- tashkiliy-huquqiy holat;
 - korxonaning investitsiya bozoridagi reyting darajasi;
 - inqirozga qarshi dasturlarining mavjudligi, marketing va moliyaviy bozor strategiyalari, mahsulotning hayotiy aylanish darajasi bahosi;
 - korxonaning boshqaruv, mahsulot yoki xizmatning SWOT tahlili;
 - moliyaviy va investitsiya menejmenti, risk menejerlari, xorijiy hamkorlar bilan ishlash tajribasiga ega mutaxassislarining boshqaruv tizimida mavjudligi.

Yuqoridagi keltirilgan ta'riflardan xulosa qilgan holda, bizninga oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini baholashda mazkur korxonalarining bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash va shu asosda korxonalarining investitsion salohiyatini tashkil etuvchi eng muhim ko'rsatkichlarini tanlab olish asosida korxonaning investitsion salohiyatining integral ko'rsatkichini hosil qilish mumkin bo'ladi. Biz tomondan taklif qilinayotgan oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini aniqlash uslubiyoti quyidagi salohiyat ko'rsatkichlari guruhlariga ajratilgan holda baholash va aniqlash talab etiladi (1-rasm).



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyati ko'rsatkichlari.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyati ko'rsatkichlari sifatida moliyaviy salohiyat ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish salohiyati ko'rsatkichlari, mehnat salohiyati ko'rsatkichlari, innovatsion salohiyati ko'rsatkichlari, marketing salohiyati ko'rsatkichlari va ehtimoliy investitsion salohiyati ko'rsatkichlari kabi turlarini o'z ichiga oladi.

Korxonaning resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini miqdoriy va sifat jihatidan baholashning belgilangan ketma-ketligi zarur, chunki "asosiy ishlab chiqarish fondlari eskirishi, yangilanishi, almashtirilishi va boshqa o'zgarishlarga duch keladi va ishlab chiqarish uchun materiallarni tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi"[2]. Yakuniy bosqichda moliyaviy

resurslar tahlil qilinadi, chunki ularning mavjudligi (yetarliligi) ishlab chiqarish-texnik bazani rivojlantirishga, kadrlar tarkibi va motivatsiyasini yaxshilashga, resurslarni tejashga qaratilgan chora-tadbirlar va loyihalarni amalga oshirishga kiritiladigan investitsiyalar hajmiga ta’sir qiladi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini investitsion salohiyatini baholash metodologiyasini amalga oshirishning asosiy bosqichlaridan biri bu nafaqat investitsion salohiyatining alohida elementlari samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko’rsatkichlarni hisoblash, balki ularning qiymatlarini aniqlash va bu korxonaning mavjud salohiyatidan foydalanishni rejalashtirishga ham imkon beradi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini investitsion salohiyatini aniqlash uslubiyoti quyida keltirilgan jadvallarda o’z aksini topgan bo’lib unda oziq-ovqat sanoati korxonalarini investitsion salohiyati ko’rsatkichlarining meyoriy qiymatlaridan foydalanish tavsiya etilgan. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini investitsion salohiyati darajasini baholash uchun ushbu jadval ma’lumotlaridan foydalanib, hisob-kitoblarda olingan koeffitsiyentlarning qiymatlari darajasini tavsiflovchi taqqoslanadigan jadval tuzish lozim bo’ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada oziq-ovqat sanoatini korxonalarida investitsion salohiyatini baholashning uslubiy asoslarini va sohadagi mavjud muammolarni ilmiy jihatdan o’rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o’rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini investitsion salohiyati ko’rsatkichlarini aniqlashda uning tarkibiy qismi bo’lgan moliyaviy salohiyat ko’rsatkichlarini to’lov qobiliyati koeffitsiyenti, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti, joriy likvidlik koeffitsiyenti, xususiy kapital rentabelligi, qarz mablag’lari rentabelligi, sotuv rentabelligi, iqtisodiy rentabellik, kapital aylanmasi koeffitsiyenti, kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti kabi ko’rsatkichlar orqali aniqlash uslubiyoti iqtisodchi olimlar tomonidan taklif etilgan (1-jadval).

Ushbu ko’rsatkichlarga qo’shimcha ravishda, bizningcha moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti, moliyaviy avtonomiya koeffitsiyenti, faol aylanma mablag’lar koeffitsiyenti, debitorlik mablag’larning aylanish koeffitsiyenti, foydalilik koeffitsiyenti va faoliyatning manfaatlilik koeffitsiyentlari ko’rsatkichlarini aniqlash maqsadga muvofiq.

Jahonda ro’y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, global beqarorlikning kuchayishi mamlakatlar iste’mol bozorini sifatli oziq-ovqat tovarlari bilan to’ldirish, aholisini yetarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, xususan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasidagi ilmiy izlanishlarni taqozo etmoqda. Aholini xavfsiz, to’yimli va yetarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, oqilona iste’molini tashkil etish, ovqatlanish madaniyatini oshirish, iste’mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to’ldirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini marketing strategiyalari asosida rivojlantirish, iste’mol bozorini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish, oziq-ovqat tovarlariga talabni to’laroq qondirishda marketing tadqiqotlari samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda marketing tamoyillaridan foydalanish, oziq-ovqat

tovarlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.[3]

1-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonalari moliyaviy salohiyati ko'rsatkichlari

	№	Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash usuli	Shartli belgilar mazmuni
Xisoblash uslublari[4]	1.	To'lov qobiliyati ko'effitsiyenti	$K_1 = Ay / JM$	Ay - aylanma mablag'lar miqdori, JM -joriy majburiyatlar hajmi
	2.	Moliyaviy barqarorlik ko'effitsiyenti	$K_2 = \frac{D+R}{X}$	D -daromadlar, R -rezerv kapitali, X -xarajatlar
	3.	Joriy likvidlik ko'effitsiyenti	$K_3 = \frac{PM+MQk+DQs+TMZ}{Mkm}$	PM - korxonaning pul mablag'lari, MQq -qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar, DQs - sof debitorlik qarzi, TMZ - tovar moddiy zaxiralar, Mkm -korxonaning qisqa muddatli majburiyatlari.
	4.	Xususiy kapital rentabelligi	$K_4 = Sf / Xo'q$	Xo'q - xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati
	5.	Qarz mablag'lari rentabelligi	$K_5 = (Oq / Qm)$	Oq -olingan qarz mablag'lari; Qm - jami uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'lari
	6.	Sotuv rentabelligi	$K_6 = StF / T$	Stf - sotuvdan olingan foyda, T -sotuvdan tushgan tushum
	7.	Iqtisodiy rentabellik	$K_7 = SF / A$	Sf - sof foyda, A -jami aktivlar
	8.	Kapital aylanmasi ko'effitsiyenti	$K_8 = T / A$	T -sotuvdan tushgan tushum, A - jami aktivlar
	9.	Kreditorlik qarzlarning aylanish ko'effitsiyenti	$K_9 = Mt / Kq$	Mt - sotilgan mahsulotlar tannarxi; Kq - kreditorlik qarzlarning o'rtacha yillik qiymati
Xisoblash uslublari[10]	10.	Moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti	$K_{mm} = M / A$	M -jami majburiyatlar , A - jami aktivlar
	11.	Aktivlar Rentabelligi ko'effitsiyenti	$A_r = Sf / Jo'q$	Jo'q - aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
	12.	Moliyaviy avtonomiya ko'effitsiyenti	$A_k = Xk / A$	Xk -xususiy kapital; A -jami aktivlar.
	13.	Faol aylanma mablag'lar ko'effitsiyenti	$F_m = (Ja - Jm) / A$	Ja - joriy aktivlar; Jm - joriy majburiyatlar
	14.	Debitorlik mablag'larning aylanish ko'effitsiyenti	$D_{ak} = Tm / Dk$	Dk - sof debitorlik qarzlarning o'rtacha yillik qiymati
	15.	Foydalilik ko'effitsiyenti	$F_k = Fj / Fo$	Fj -joriy davrda olingan sof foyda; Fo -o'tgan davrda olingan sof foyda.
	16.	Faoliyatning manfaatliligi ko'effitsiyeti	$M_{m.k} = (DY.j / Xj.j) / (DY.o / Xj.o)$	DY.j -joriy davrdagi korxonaning yalpi daromadi; Xj.j -joriy davrdagi korxonaning jami xarajatlari; DY.o - o'tgan davrdagi korxonaning yalpi daromadi; Xj.o - joriy davrdagi korxonaning jami xarajatlari.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini tashkil etuvchi tarkibiy qismlaridan bo‘lgan asosiy ishlab chiqarish salohiyati ko‘rsatkichlarini aniqlashda fond qaytimi koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti, fond sig‘imi koeffitsiyenti orqali aniqlash biz tomndan taklif etilgan (2-jadval).

2-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonalari asosiy ishlab chiqarish salohiyati ko‘rsatkichlari

	No	Ko‘rsatkichlar nomi	Hisoblash usuli	Shartli belgilar mazmuni
Hisoblash usullari[10]	1	Fond qaytimi koeffitsiyenti	$Fk=Hx/Vo'q$	Hh – ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi; Vo‘q - asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati
	2	Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti	$Yak=Qq/Bq$	Qq -asosiy vositalarning qoldiq qiymati; Bq - asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati.
	3	Fond sig‘imi koeffitsiyenti	$Fs= Vo'q/Xh$	Hh – ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi; Vo‘q - asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati

Oziq-ovqat sanoati korxonalari mehnat salohiyatini aniqlashga bo‘lgan uslubiy yondashuv 3-jadvalda keltirilgan. Korxonaning mehnat salohiyati tarkibi ishchilar guruhlarining ijtimoiy, funksional, demografik, kasbiy, malakaviy va boshqa xususiyatlarini o‘z ichiga oladi (3-jadval). Oziq-ovqat sanoati korxonalarining mehnat salohiyati ko‘rsatkichlarini aniqlashda ishchi va xodimlar unumdorligi, ishchi va xodimlarning ma‘lumotlilik darajasi, ishchi va xodimlarning yosh ko‘rsatkichlari koeffitsiyenti, ishchi va xodimlarning ish staji ko‘rsatkichlari koeffitsiyenti, ishchi va xodimlarning qo‘nimsizlik koeffitsiyenti kabi aniqlash uslublaridan foydalanilgan. Odatda, tashkilotning kasbiy va malaka salohiyati yosh tarkibi, ish staji, xodimlarning bilim darajasi va xodimlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha tashkilotning say-harakatlari bilan baholanadi [4].

Mahalliy iqtisodchi olim X.P.Abulqosimov mehnat salohiyatini o‘rganishga e‘tibor qaratib, “mehnat potentsiali-bu jismoniy imkoniyatga, ma‘lumot kasbkor malakaga ega bo‘lgan, ishlab chiqarishda ishtirok etishga layoqati bo‘lgan barcha fuqarolarni o‘z ichiga oladi” [5] - deya ta‘rif bergan.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatining tarkibiy qismi bo‘lgan navbatdagi salohiyat turi innovatsion salohiyat bo‘lib uni aniqlashda mahalliy iqtisodchi olim E.B.Iskandarov tomonidan korxonaning ilmiy-tadqiqot salohiyati, korxonaning texnikaviy salohiyati, innovatsiyalar natijaviyligi salohiyati, innovatsiyalarning turmush darajasiga ta‘siri salohiyati kabi ko‘rsatkichlardan foydalangan holda korxonalarining innovatsion salohiyatini aniqlash lozimligi keltirilgan [6].

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini mehnat salohiyati ko'rsatkichlari

	No	Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash usuli	Shartli belgilar mazmuni
Hisoblash uslublari[12]	1	Ishchi va xodimlar mehnati unumdorligi (%)	$P_o = (R_{r1} + R_{r2} + \dots + R_{rn}) / n$	R_{rn} - xodimning hisobot davridagi faoliyati
	2	Ishchi va xodimlarning ta'lim darajasi (%)	$U_v = Chv_o / Chpe_{rs}$	$Chpe_{rs}$ - ishchi va xodimlarning umumiy soni, Chv_o - oliy ma'lumotli xodimlar soni
Xisoblash uslublari[10]	1	Ishchi va xodimlarning yosh ko'rsatkichlari koeffitsiyenti	$I_{yo.k} = I_{yo} / I$	$I_{yo.k}$ - ishchi va xodimlarning yosh koeffitsiyenti; I_{yo} - belgilangan yoshdagi ishchi va xodimlar soni
	2	Ishchi va xodimlarning ish staji ko'rsatkichlari koeffitsiyenti	$I_{s.k} = I_s / I$	$I_{s.k}$ - ishchi va xodimlarning ish staji koeffitsiyenti; I_s - belgilangan ish stajiga ega ishchi va xodimlar soni.
	3	Qo'nimsizlik koeffitsiyenti	$Q_{ik} = Rib / R_s$	Rib - ishdan bo'shaganlar soni; R_s - ro'yxatdagi ishchilarning soni
	4	Ishchi va xodimlar real daromadi koeffitsiyenti	$R_{Dk} = R_{Dj} / R_{Do}$	R_{Dj} - ishchi va xodimlarning joriy davrdagi real daromadlari qiymati; R_{Do} - ishchi va xodimlarning oldingi davrdagi real daromadlari qiymati.
	5	Ishchi va xodimlarning ishdan bo'shatilganlik koeffitsiyenti	$I_{Xb.k} = I_{Xj} / I_{Xo}$	I_{Xj} - ishchi va xodimlarning joriy davrdagi soni; R_s - ishchi va xodimlarning o'tgan davrdagi soni.

Iste'mol tovarlari bozoriga to'xtaladigan bo'lsak, u kishilarning kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar bozori bo'lib, uy xo'jaliklari hamda alohida xaridorlarning o'z ehtiyojlari uchun sotib oladigan barcha tovar va xizmatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu bozorda keng iste'mol buyumlari, madaniy, maishiy va kommunal xizmatlar oldi-sotdi qilinadi. Amalda iste'mol tovarlari bozori savdo shoxobchalaridan iborat bo'lib, ularga do'konlar, savdo uylari, firmalar, supermarket, oziq-ovqat do'konlari, oshxona, nonvoyxona, turli xil ustaxonalar, dehqon bozorlari, kosib va hunarmandlar rastalari kiradi. [7]

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini innovatsion salohiyati ko'rsatkichlari

	No	Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash usuli	Shartli belgilar mazmuni
Xisoblash	1	Korxonaning ilmiy-tadqiqot salohiyati	$I_{f.u} = I_{i.f.} / I$	$I_{f.u}$ - ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ishchi va xodimlar ulushi; $I_{i.f.}$ - ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ishchi va xodimlar soni.
	2		$I_{i.u} = I_{i.d.} / I$	$I_{f.u}$ - ilmiy darajaga ega ishchi va xodimlar ulushi; $I_{i.f.}$ - ilmiy darajaga ega ishchi va xodimlar soni.

		Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash usuli	Shartli belgilar mazmuni
	3		$Ti.u=Ti.i/H$	Ti.u -ilmiy tadqiqot ishlari ulushi; Ti.i -ilmiy tadqiqot ishlari hajmi; H -jami ishlab chiqarish hajmi.
	4	Korxonaning texnikaviy salohiyati	$Kya=Qk/Qb$	Kya -asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti; Qk -asosiy fondlarning qoldiq ko'rsatkichi; Qb -asosiy fondlarning boshlang'ich ko'rsatkichi
	5		$Qk=Ab-Ay$	Qk -asosiy fondlarning qoldiq ko'rsatkichi; Ab -amortizatsiya ajratmalarining boshlang'ich qiymati; Ay - amortizatsiya ajratmalarining yig'ilgan qiymati.
	6		$Aya=Ak/Ao$	Aya -asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti; Ak -asosiy fondlarning kiritilish qiymati; Ao -asosiy fondlarning davr oxiridagi qiymati.
	7		$Xi.k=Xt.i/Xa.i$	Xi.k -Innovatsiyalarga qilingan xarajatlar koeffitsiyenti; Xt.i -texnik innovatsiyalarga qilingan xarajatlar; Xa.i -jami amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun qilingan xarajatlar.
	8		$Xa.k=Xa.i/Xj$	Xa.k -amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun qilingan xarajatlar koeffitsiyenti; Xa.i -jami amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun qilingan xarajatlar; Xj -jami qilingan xarajatlar.
	9		Innovatsiyalar natijaviyligi salohiyati	$Iu=Ih/ I.h$
	10	$Im.u=Im/Mya$		Im.u -yaratilgan mahsulot va xizmatlarda innovatsion mahsulotlarning ulushi; Im -innovatsion mahsulotlar miqdori; Mya - jami yaratilgan mahsulot va xizmatlar.
	11	Innovatsiyalarning turmush darajasiga ta'siri salohiyati	$Xi.t=It.x/I$	Xi.t -har bir xodimga to'g'ri keluvchi innovatsion tovar va xizmatlar ulushi; It.x - innovatsion tovarlar va xizmatlar miqdori.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatining tarkibiy qismi bo'lgan navbatdagi salohiyat turi bu marketing salohiyati bo'lib uni aniqlashda biz tomondan bozor ulushi koeffitsiyenti, tovarlarning realizatsiya koeffitsiyenti, marketolog xodimlar koeffitsiyenti va marketing xarajatlari koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlardan foydalanish asosida aniqlash taklif etilgan (5-jadval).

5-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonalari marketing salohiyati ko'rsatkichlari

	№	Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash usuli	Shartli belgilar mazmuni
Xisoblash usuli		Bozor ulushi koeffitsiyenti	$Buk=Bms/Jst$	Bms - muayyan bozorda sotilgan mahsulot qiymati; Jst - jami sotilgan mahsulot qiymati
		Marketolog xodimlar koeffitsiyenti	$Xm.k=Xm/Xj$	Xm - Marketolog xodimlar soni; Xj - Jami ishchi-xodimlar soni.
		Marketing xarajatlari koeffitsiyenti	$Mx.k=Mx/Ux$	Mx - Marketing xarajatlari qiymati; Ux - umumiy xarajatlari qiymati.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatining tarkibiy qismi bo‘lgan ehtimoliy salohiyatni aniqlashda biz tomondan barcha tarkibiy salohiyat turlarining jamlangan umumiy ko‘rsatkichi sifatida qarash taklif etilgan. Jumladan, ehtimoliy salohiyatni ehtimoliy moliyaviy salohiyat koeffitsiyenti, ehtimoliy asosiy ishlab chiqarish salohiyati koeffitsiyenti, ehtimoliy marketing salohiyati koeffitsiyenti, ehtimoliy mehnat salohiyati koeffitsiyenti, ehtimoliy innovatsion salohiyat koeffitsiyenti va ehtimoliy investitsion salohiyati koeffitsiyentlarining umumiy integral ko‘rsatkichi sifati qarash biz tomondan taklif etilgan (6-jadval).

6-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonalari ehtimoliy investitsion salohiyati

	No	Ko‘rsatkichlar nomi	Hisoblash usuli	Shartli belgilar mazmuni
Hisoblash uslublari[10]	1	Ehtimoliy moliyaviy salohiyat koeffitsiyenti	$ESm = \frac{\sum(M_{s1}+...M_{sn})}{n}$	ESm - ehtimoliy moliyaviy salohiyat koeffitsiyenti; Ms-moliyaviy salohiyati koeffitsiyenti; n- o‘rtacha soi soni.
	2	Ehtimoliy asosiy kapital salohiyati koeffitsiyenti	$ESak = \frac{\sum(Aks_1+...Aks_n)}{n}$	ESak - ehtimoliy ishlab chiqarish salohiyati koeffitsiyenti; Aks - asosiy kapital salohiyati koeffitsiyenti; n- o‘rtacha soi soni.
	3	Ehtimoliy marketing salohiyati koeffitsiyenti	$ESmr = \frac{\sum(Mars_1+...Mars_n)}{n}$	ESmr - ehtimoliy marketing salohiyati koeffitsiyenti; Mars - marketing salohiyati koeffitsiyenti; n- o‘rtacha soi soni.
	4	Ehtimoliy mehnat salohiyati koeffitsiyenti	$ESmh = \frac{\sum(Mehs_1+...Mehs_n)}{n}$	ESmh-ehtimoliy innovatsion salohiyat koeffitsiyenti; Mehs-mehnat salohiyati koeffitsiyenti; n- o‘rtacha soi soni.
	5	Ehtimoliy innovatsion salohiyat koeffitsiyenti	$ESi = \frac{\sum(Ins_1+...Ins_n)}{n}$	ESmh - ehtimoliy innovatsion salohiyat koeffitsiyenti; INs - innovatsion salohiyati koeffitsiyenti; n- o‘rtacha soi soni.

Unga ko‘ra olib borilgan tadqiqotlar natijasida oziq-ovqat sanoati korxonasi investitsion salohiyatini tashkil etuvchilar sifatida moliyaviy salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, mehnat salohiyati, innovatsion salohiyat, marketing salohiyati, ehtimoliy salohiyat va boshqaruv salohiyati kabi salohiyat turlarini ajratib o‘tish mumkin. Korxonaning boshqaruv salohiyatini aniqlashda esa foydalilik koeffitsiyenti, ehtimoliy salohiyat koeffitsiyenti, mehnat unumdorligi, ishchi va xodimlar real daromadi koeffitsiyenti, ishchi va xodimlarning ishdan bo‘shatilganlik koeffitsiyenti kabi aniqlash uslublardan foydalanilgan (7-jadval).

Keltirilgan barcha jadval ma’lumotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyati darajasini hisoblash uslublari keltirilgan.

Boshqaruv salohiyati

	No	Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash usuli	Shartli belgilar mazmuni
Xisoblash usulblari ¹	1	Foydalilik koeffitsiyenti	$F_k = F_j / F_o$	F_j -joriy davrda olingan sof foyda; F_o -o'tgan davrda olingan sof foyda.
	2	Ehtimoliy boshqaruv salohiyati koeffitsiyenti	$IM_b = (M_{1.2} / M_{1.1} + M_{2.2} / M_{2.1} \dots + M_{n.2} / M_{n.1}) / n$	IM_b - ehtimoliy boshqaruv salohiyati koeffitsiyenti; M_{n.1} - manfaat miqdori; n - manfaatlar soni.
	3	Faoliyatning manfaatligi koeffitsiyeti	$M_{m.k} = (DY.j / X_j.j) / (DY.o / X_j.o)$	DY.j -joriy davrdagi korxonaning yalpi daromadi; X_{j.j} -joriy davrdagi korxonaning jami xarajatlari; DY.o - o'tgan davrdagi korxonaning yalpi daromadi; X_{j.o} - joriy davrdagi korxonaning jami xarajatlari.
	4	Ishchi va xodimlar real daromadi koeffitsiyenti	$RD_k = RD_j / RD_o$	RD_j - ishchi va xodimlarning joriy davrdagi real daromadlari qiymati; RD_o - ishchi va xodimlarning oldingi davrdagi real daromadlari qiymati.
	5	Ishchi va xodimlarning ishdan bo'shatilganlik koeffitsiyenti	$IX_{b.k} = IX_j / IX_o$	IX_j – ishchi va xodimlarning joriy davrdagi soni; IX_o - ishchi va xodimlarning o'tgan davrdagi soni.

Unga ko'ra olib borilgan tadqiqotlar natijasida oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini tashkil etuvchilar sifatida moliyaviy salohiyat, asosiy kapital salohiyati, marketing salohiyati, mehnat salohiyati, innovatsion salohiyat, ehtimoliy investitsion salohiyati kabi salohiyat turlari ko'rsatkichlarini ajratib o'tish mumkin.

Xulosa

Shunday ekan, bizningcha oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyati darajasini belgilovchi yagona meyoriy koeffitsiyent mavjud bo'lishi talab etiladi. Bizningcha ushbu ko'rsatkichni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lib, investitsion salohiyatini tashkil etuvchi barcha ko'rsatkichlarning umumiy integral koeffitsiyenti orqali ifodalanishini anglatadi.

$$INVo = 7 / (Ms^{-1} * Ichs^{-1} * INs^{-1} * Meh_s^{-1} * Mars^{-1} * ESin^{-1} * Bs^{-1})$$

Bu yerda: INVoqurili -oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyati darajasi integral koeffitsiyenti;

Ms– oziq-ovqat sanoati korxonalari moliyaviy salohiyati koeffitsiyenti;

Ichs – oziq-ovqat sanoati korxonalari asosiy kapital salohiyati koeffitsiyenti;

INs – oziq-ovqat sanoati korxonalari innovatsion salohiyati koeffitsiyenti;

Mehs – oziq-ovqat sanoati korxonalari mehnat salohiyati koeffitsiyenti;

Mars– oziq-ovqat sanoati korxonalari marketing salohiyati koeffitsiyenti;

ESin – oziq-ovqat sanoati korxonalari ehtimoliy investitsion salohiyati koeffitsiyenti;

Bs– oziq-ovqat sanoati korxonalari boshqaruv salohiyati koeffitsiyenti.

Mazkur formula asosida oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyati darajasi yagona qiymati hosil qilinadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin, oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyati darajasini ifodalashda yagona ko‘rsatkichdan foydalanish lozim va bu ko‘rsatkich orqali korxonaning umumiy iqtisodiy rivojlanishi va investitsion holati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Иванова В.Н. Повышение качества пищевой продукции - ключевой приоритет реализации государственной политики. -М.: 20214 -162 с.
2. Хлынин Э.В. Методы и модели управления процессом воспроизводства основного капитала / Э.В. Хлынин, С.В. Городничев, Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2014. № 3-1. С. 114-123.
3. Azlarova M. M. Oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan to‘ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish // YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. 2024-yil, yanvar. № 1-son.
4. Судакова Е.С. Оценка трудового потенциала персонала: подходы, методы, методика / Е.С. Судакова // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ».-2014.- Выпуск №4.-С.1-26.
5. Абулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. - Т.: ТМИ. 2005. - 114 б.
6. Искандаров Э.Б., “Ўзбекистон қурилиш саноати корхоналарида барқарор инновацион ривожланишни таъминлаш” мавзусидаги 08.00.03-Саноат иқтисодиёти ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. 2022 й. б-13.
7. Азларова М.М. Иқтисодиётнинг глобаллашув шароитида ички бозорни озиқ-овқат товарлари билан тўлдиришнинг назарий асослари // Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 1-son.
8. Саидов М.С. Ўзбекистонда табиий монополь ташкилотларни бошқариш ва тартибга солишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil.
9. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/magolalar/11_Saidov.pdf
10. Саидов М.С. Глобаллашув шароитида табиий монополь ташкилотлар фаолиятини давлат томонидан тартибга солишнинг институционал хусусиятлари // «Таълим – тарбия жараёнига инновацион ёндашувлар, муаммо ва ечимлар» мавзусидаги республика илмий – амалий конференцияси. -Тошкент 2022 й. 197-203 б. <https://zenodo.org/records/6585036>
11. Саидов М.С. Табиий монополь ташкилотларни бошқаришнинг назарий-услубий жиҳатлари // Иқтисодиёт ва таълим / 2021йил 2-сон.
12. <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3104/816>
13. Саидов М.С. Табиий монополь ташкилотларни бошқаришда рақобат муҳитини ривожлантириш // Иқтисодиёт ва таълим / 2021йил 4-сон.

14. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/125/121>
15. Саидов М.С. Табиий монополияларни бошқариш ва тартибга солишнинг хориж тажрибаси // Иқтисодиёт ва таълим / 2021йил, 5-сон.
16. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/209/256>
17. Саидов М.С. Табиий монополиялар: амалиётдаги муаммолар, уларни тартибга солиш ва бошқаришда инновацион ёндашувлар // Корпоратив бошқарув тамойилларини жорий этишнинг илғор хориж тажрибаси ва уни Ўзбекистонда қўллаш истиқболлари // Халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. Тошкент – “Иқтисодиёт” – 2021 й. 343 -349 б.
18. Saidov M.S. Challenges and solutions of formation of competitive environment in regulation of natural monopolies // International Journal of Advanced Research in IT and Engineering. №11 2021. 45-58 ISSN: 2278-6244 <https://garph.co.uk/IJARIE/Nov2021/G-6.pdf>
19. Saidov M.S. Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan // INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT ISSN (electronic): 2620 - 6269/ ISSN (printed): 2615 – 4021 Vol. 5 No. 1 | January 2023. P. 38-52.
20. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/3879/3668>
21. Saidov M.S. Ways of introduction of modern management mechanisms in the electric power sector of Uzbekistan // International Journal of Business Diplomacy and Economy Volume 2, No 1 | Jan- 2023. P. 98-110.
22. <https://inter-publishing.com/index.php/ijbde/article/view/977/843>